

2019-yilning yanvar-fevral oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

44,1 trln.so'm sanoat ishlab chiqarish hajmi	107,2 % fizik hajm indeksi
12,8 trln.so'm iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	120,8 % o'sish sur'ati
29,0 % iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	27,0 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalari tomonidan 44,1 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 107,2 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 4,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 8,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 6,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 9,4 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



* *Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 8,1 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish 4,2 % ga, va shag'al – 2,0 m. ga oshdi. Shu bilan birga, ko'mir qazib olish 25,2 % ga, neft - 5,3 % ga, gaz kondensati - 2,5 % ga, chaqiq tosh - 29,7 % ga pasaygan.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Ko'mir, ming t.			
721,0		539,2	74,8 ↓
Neft, ming t.			
122,1		115,5	94,7 ↓
Tabiiy gaz, mln.kub.m.			
9649,7		10054,7	104,2 ↑
Gaz kondensati, ming t.			
353,8		344,8	97,5 ↓
Chaqiq tosh, ming t.			
143,6		100,9	70,3 ↓
Shag'al, ming t.			
38,1		76,0	199,1 ↑




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,0 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 72,5 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,3 % ni (2018-yil yanvar-fevral oylarida - 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 28,9 % (27,6 %), o'rta-quyi texnologiyali - 33,1 % (30,2 %) va quyi texnologiyali - 36,7 % (40,7 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi





Jami sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 17,1 % (2018-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 21,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 13,4 % (7,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 13,3 % (1,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 11,2 % (11,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 7,9 % (1,6 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 2,6 m., yengil avtomobillar - 51,3 %, avtomobil dvigatellari - 64,1%, avtobuslar - 2,1 m., dizel yoqilg'isi - 4,0 %, yurguzuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 3,6 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chamberaklari, rul kolonkalari va rul mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 31,6% ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital ta'mirlash ishlari kimyo korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 113,7 %), karbamid (126,5 %), ammoniy sulfat (147,4 %), ammoniy nitrat (128,9 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (145,0 %), gerbitsidlar (137,3 %), kaustik soda (184,3 %), boshqa azotli o'g'itlar va ularning aralashmalari (6,0 m.), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (1,6 m.) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Yengil avtomobillar, dona			
25546		38642	151,3 ↑
Yuk avtomobillari, dona			
296		782	2,6 m. ↑
Avtobuslar, dona			
94		194	2,1 m. ↑
Avtomobil dvigatellari, dona			
19897		32642	164,1 ↑
Paxta tolasi, ming t.			
249,1		186,8	75,0 ↓
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.			
41,9		35,8	85,4 ↓

2018-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Tamaki mahsulotlari, mln. dona			
1517		1715	113,1 ↑
Avtomobil benzini, ming t.			
205,8		151,6	73,7 ↓
Dizel yoqilg'isi, ming t.			
163,3		169,8	104,0 ↑
Portlandsement, ming t.			
1066,5		1273,8	119,4 ↑
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.			
1209,1		1752,7	145,0 ↑
Traktorlar, dona			
208		67	32,2 ↓



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,7 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,4 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr

energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	----------------------	---	-------------------

Elektroenergiya, mln.kVt/s

10816,6



11679,4

108,0



Issiqlik energiyasi, ming Gkal

7456,3



7407,5

99,3



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 363,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 2,1 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 2,9 martaga, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 3,0 m., ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 41,1 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 52,8 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 60,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	----------------------	---	-------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna

57,7



36,1

62,6



Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, tonna

490,0



1041,0

2,1 p.



Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm

22,2



33,9


152,8



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 12,8 trln.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 20,8 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 29,0 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 67,0 % dan 2019-yilning yanvar-fevral oylarida 68,8 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 7,2 % ni (2018-yil yanvar-fevral oylarida 8,6 %) tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 15,9 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 36,1 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.

2018-yil yanvar-fevral




2019-yil yanvar-fevral



- Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar
- Respublikaning boshqa korxonalari

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi - 22,3 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining ulushi - 77,6 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,8 %), Toshkent shahri (15,1 %), Navoiy (13,8 %), Andijon (10,6 %), Qashqadaryo (6,8 %) va Farg'ona (5,7 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan %




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Andijon (2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 123,8 %), Samarqand (117,2 %), Xorazm (114,3 %), Toshkent (107,3 %) va Namangan (106,6 %) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Andijon (2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 160,7 %), Xorazm (128,4 %), Sirdaryo (111,1 %), Farg'ona (107,8 %) va Surxondaryo (106,8 %) viloyatlarida iste'mol tovarlarini sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Andijon (iste'mol tovarlari hajmida 28,6 %), Toshkent shahar (20,2 %), Samarqand (8,2 %) va Toshkent (7,6 %) viloyatlarida ishlab chiqarildi.


2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha istemol mollarning o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan %



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy viloyatida (6308,8 ming so'm), Toshkent shahrida (2672,8 ming so'm), Toshkent (2416,4 ming so'm) va Andijon (1540,2 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (1338,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 388,6 ming so'm bo'lgani holda Andijon viloyatida - 1207,1 ming so'mni, Toshkent shahrida - 1041,4 ming so'mni, Xorazm viloyatida - 367,7 ming so'mni, Sirdaryo viloyatida 360,6 ming so'mni, Navoiy viloyatida - 353,4 ming so'mni va Toshkent viloyatida 338,1 ming so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarning o'sishi 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan %




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 11,9 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 71,1 %), Namangan (62,0 %), Jizzax (50,1 %), Samarqand (43,7 %), Surxondaryo (42,7 %), Sirdaryo (32,7 %) va Farg'ona (29,2 %) viloyatlarida kuzatildi.


Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy viloyatida (9,1 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (14,2 %), Qashqadaryo (14,5 %) va Andijon (16,5 %) viloyatlarida kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Respublikada 60,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 13,9 mingtasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,9 %) Toshkent shahriga, 6,7 mingtasi (11,0 %) Farg'ona viloyatiga, 6,1 mingtasi (10,1 %) - Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2019-yil 1 mart holatiga)



2019-yil yanvar-fevral oylarida Respublikada 4623 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 54,1 foizi Toshkent shahri, Buxoro, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 mart holatiga)



Sanoat statistikasi boshqarmasi

Aloqa telefoni: (71) 230-80-46